

Yuridik departament
Korporativ va ichki hujjatlar
ekspertizasi xizmatida
2026-yil “6” yanvar da
672— son bilan
RO‘YXATGA OLINGAN



“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Boshqaruvining
2025-yil “30” dekabr da
sonli qarori bilan
TASDIQLANGAN

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish TARTIBI

Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 916, 2000-yil 5-aprel), “O‘zsanoatqurilishbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank)ning ichki hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish tartibi (ro‘yxat raqami 638, 2025-yil 24-fevral) va ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va boshqa hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, bankda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni (keyingi o‘rinlarda – hisobot) shakllantirish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Bankda hisobotni shakllantirish va taqdim etish uchun mas‘uliyat korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasiga yuklatiladi.

Bankning hududiy tarmoqlari tomonidan hisobotni taqdim qilish uchun mas‘uliyat hududiy tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan va/yoki hududiy tarmoqlarga birlashtirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasi xodimlari zimmasida bo‘ladi.

2-bob. Hisobotni shakllantirish

2. Bankda hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyatini monitoring va nazorat qilish, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bankda qabul qilingan tadbirlar ijrosini nazorat qilish maqsadida tuziladi.

3. Bankda quyidagi muddatlarda hisobot taqdim etiladi:

a) bank Boshqaruv raisi va Kuzatuv kengashiga yil yakuni bo‘yicha keyingi yilning mart oyiga qadar umumiy yillik hisobot taqdim etiladi;

b) bank Boshqaruv raisi va Kuzatuv kengashiga yarim yil (6 oy) yakuni bo‘yicha yilning sentabr oyiga qadar oraliq hisobot taqdim etiladi.

Yillik hisobot Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanganidan so'ng, ushbu hisobotdagi umumiy ma'lumot bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Umumiy yillik hamda oraliq hisobotlar tuzilganidan so'ng, elektron dastur orqali yoki qog'oz shaklida yuborilishi mumkin.

4. Umumiy yillik hisobot mazkur Tartibning 1-ilovasiga muvofiq, oraliq hisobot esa mazkur Tartibning 2-ilovasiga muvofiq tuziladi va taqdim etiladi.

Umumiy yillik hisobotda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlari, vakolatli organlarning chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha ham ma'lumot kiritilishi mumkin.

5. Umumiy yillik hisobot quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- a) bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining bajarilish holati;
- b) bankda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan ichki hujjatlar;
- d) xavf-xatarlarni baholash ishlari;
- e) manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar;
- f) bankning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini shartnomalarga kiritish holati;
- g) kontragent va ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish natijalari yuzasidan ma'lumot;
- h) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo'yicha o'tkazilgan o'quv-treninglar holati;
- i) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi samaradorligi monitoringi va ichki auditi (nazorati);
- j) korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risidagi xabarlar yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumot;
- k) aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari;
- l) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar (mavjud bo'lsa);
- m) o'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili ko'rsatilishi mumkin.

6. Oraliq hisobot quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- a) tashqi va ichki omillar (qonunchilik va ichki hujjatlar talablari, ularning bajarilish muddatlari va natija);
- b) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining monitoringi va ichki auditi natijalari;
- d) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo'yicha o'tkazilgan o'quv-treninglar (seminarlar, davra suhbatlari va sh.k.);
- e) bankning maxsus aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar o'rganilishi — o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari holati;
- f) Ommaviy axborot vositalari va maxsus aloqa kanallarining monitoringi.

**3-bob. Hisobotni shakllantirishda tarkibiy bo'linma
va hududiy tarmoqlarning majburiyatlari**

7. Umumiy yillik hisobotni shakllantirish uchun yo‘nalishiga qarab bankning quyidagi bo‘linma va/yoki tarmoqlari ma’lumotlarni korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasiga har yili yanvar oyining 10-sanasiga qadar taqdim etish uchun mas’uldirlar:

a) bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi (maqsadlari)ning bajarilishi bo‘yicha ma’lumotlarni — ushbu dasturda belgilangan tarkibiy bo‘linma va/yoki hududiy tarmoqlar rahbarlari;

b) xavf-xatarlarni baholash ishlari bo‘yicha ma’lumotlarni – barcha tarkibiy bo‘linma va/yoki hududiy tarmoqlar rahbarlari;

d) manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni – Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti rahbari;

e) bankning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini shartnomalarga kiritish holati bo‘yicha ma’lumotlarni – bankning barcha biznes yo‘nalishidagi bo‘linmalari rahbarlari, shuningdek Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti rahbari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasining so‘rovnomasiga asosan barcha tarkibiy bo‘linma va hududiy tarmoqlar zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni ham taqdim etishi lozim.

8. Oraliq hisobotni shakllantirish uchun yo‘nalishiga qarab quyidagi bo‘linma va/yoki tarmoqlar ma’lumotlarni korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasiga har yili iyul oyining 10-sanasiga qadar taqdim etish uchun mas’uldirlar:

a) bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining bajarilishi bo‘yicha ma’lumotlarni — ushbu dasturda belgilangan tarkibiy bo‘linma va/yoki hududiy tarmoqlar rahbarlari;

b) xavf-xatarlarni baholash ishlari bo‘yicha ma’lumotlarni – barcha tarkibiy bo‘linma va/yoki hududiy tarmoqlar rahbarlari;

d) bankning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini shartnomalarga kiritish holati bo‘yicha ma’lumotlarni — bankning barcha biznes yo‘nalishidagi bo‘linmalari rahbarlari, shuningdek Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti rahbari;

e) moliyaviy nazorat bo‘yicha aniqlangan nomuvofiqliklar va yopilgan (bartaraf etilgan) nomuvofiqliklar soni bo‘yicha ma’lumotlarni — Ichki audit departamenti, Komplayens-nazorat departamenti, Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti, Operatsion departamenti rahbarlari;

f) moliyaviy bo‘lmagan nazorat orqali aniqlangan nomuvofiqliklar va yopilgan (bartaraf etilgan) nomuvofiqliklar soni bo‘yicha ma’lumotlarni — Ichki audit departamenti, Komplayens-nazorat departamenti, Risk-menejment departamenti rahbarlari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasining so‘rovnomasiga asosan barcha tarkibiy bo‘linma va hududiy tarmoqlar zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni ham taqdim etishi lozim.

9. Hisobot turiga qarab korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasi tomonidan mazkur Tartibning 3-ilovasiga muvofiq hisobotni shakllantirish uchun ma’lumotlarni taqdim etish to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.

Tarkibiy bo‘linma va hududiy tarmoqlar rahbarlari so‘ralgan hujjatlar (ma’lumotlar)ni xabarnomada belgilangan muddatda to‘liq va sifatli taqdim etish bo‘yicha mas’ul bo‘lib hisoblanadi.

Tarkibiy bo'linma va hududiy tarmoqlar tomonidan hisobotni shakllantirish uchun yuborilgan hujjat (ma'lumot)lar ushbu bo'linma va tarmoqlar rahbarlari tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Hisobotning biron-bir bo'limi bo'yicha tadbirlar o'tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababi ko'rsatiladi.

Hisobot tarkibiy bo'linmalardan olingan ma'lumotlarga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasi tomonidan tuziladi hamda bank Boshqaruv raisi va Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritadi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

10. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hujjatlariga qo'shimcha va/yoki o'zgartishlar kiritilgan taqdirda ushbu Tartib qayta ko'rib chiqilishi lozim.

11. Ushbu Tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

12. Mazkur Tartib kuchga kirishi munosabati bilan bank Boshqaruvining 2023-yil 16-oktabrdagi 261-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish tartibi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

Boshqaruv Raisi
v.v.b.:



A.Ergashev

№ 403

2025 yil «17» «sentabr»

kelishuvchilar: M.Gafurova, A.Xujamuratov, Абдуллаев Комилжон Истатилло ўғли, R.Umarov, A.Kamalov, Sh.Ismoilov, D.Shamirzayev, M.Eshmatov, A.Yoqubjonov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=rX93wU18&id=c6fe3ad7-fbb4-4415-9046-87d5a1c75d7f>